

IJTIMOIIY TARMOQLAR VA ZAMONAVIIY SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ ERTAKLARINING ROLI

AMANOVA ONARXOL CHARIIYEVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Xorijiy til va adabiyoti ” yuqori kurslar kafedrası o‘qituvchisi

Email: O.amanova@dpi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17292472>

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy tarmoqlar davrida xalq ertaklarining o‘rni va ularning zamonaviy shaxs tarbiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. Internet va raqamli texnologiyalar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda kuchli omil bo‘lib, xalq og‘zaki ijodining qadimiy janrlari, xususan, ertaklarning ahamiyati qayta baholanmoqda. Xalq ertaklari orqali milliy identitet, ma’naviy qadriyatlar va axloqiy mezonlar ijtimoiy tarmoqlar yordamida keng yoyilmoqda.

Kalit so‘zlar: xalq ertaklari, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy shaxs, ma’naviyat, identitet, tarbiya.

РОЛЬ НАРОДНЫХ СКАЗОК В ФОРМИРОВАНИИ СОВРЕМЕННОЙ ЛИЧНОСТИ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Аннотация: В статье анализируется роль народных сказок в эпоху социальных сетей и их влияние на воспитание современного человека. Интернет и цифровые технологии являются мощным фактором формирования мировоззрения молодежи, и значение древних жанров устного народного творчества, в частности сказок, переоценивается. Через народные сказки национальная идентичность, духовные ценности и нравственные нормы широко распространяются с помощью социальных сетей.

Ключевые слова: народные сказки, социальные сети, современная личность, духовность, идентичность, воспитание.

THE ROLE OF FOLK TALES IN SHAPING THE MODERN PERSONALITY IN THE CONTEXT OF SOCIAL NETWORKS

Abstract: The article analyzes the role of folk tales in the era of social networks and their impact on the upbringing of the modern individual. The Internet and digital technologies are powerful factors in shaping the worldview of young people, and the significance of ancient genres of oral folklore, particularly folk tales, is being re-evaluated. Through folk tales, national identity, spiritual values, and moral standards are widely disseminated with the help of social networks.

Keywords: folk tales, social networks, modern personality, spirituality, identity, education.

KIRISH

XXI asrda yoshlarning dunyoqarashi va qadriyat tizimini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlar muhim omilga aylandi. Biroq, shiddatli global axborot oqimi jarayonida milliy madaniyat va folklor merosini yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifaga aylandi. Xalq

ertaklari – [xalqning donishmandligi, axloqiy qarashlari va orzu-umidlarini o'zida mujassamlashtirgan Aarne-Thompson klassifikatsiyasi 1910–1961.] adabiy janr sifatida bugungi raqamli muhitda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xalq ertaklari asriy va umirboqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol tutadi. Ertaklar orqali halollik, mehnatsevarlik, jasorat, sadoqat kabi qadriyatlar yosh ongiga singadi. Zamonaviy shaxs shakllanishida ertak qahramonlari ideal obraz sifatida xizmat qiladi. Ertaklarda aks etgan ramzlar – yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg'on o'rtasidagi kurash zamonaviy axloqiy tarbiyada ham dolzarbdir.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy identitet – insonning ma'lum bir guruh, millat, din, madaniyat, til yoki jamiyatga tegishlilik hissi]. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashiga bevosita ta'sir qilmoqda. Ular tezkor ma'lumot olish, o'z fikrini ifodalash va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish imkonini beradi. Biroq, bu jarayon ko'pincha ma'naviyatsiz kontent, yolg'on axborot va g'arblik qadriyatlarning ta'siriga ham yo'l ochadi. Ingliz xalq ertaklarini o'rganish orqali ingliz tilini o'zlashtirish yaxshi samara beradi. O'zbek va Ingliz xalq ertaklarini tipologik jixatdan o'rqnish orqali mintalitetimiz qadriyatlarini saqlab qolishga ham o'rgatadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bir rivojlangan zamonaviy hayotda chet tililarni o'rganish orqali yevropa madaniyatiga qarab ketmasligimiz kerak, balki chet tillarini yaxshi o'rgangan holda o'zligimizni, qadriyatlarimizni, o'zbek xalqiga hos iffat, hayo, or, nomusni qadirlashni doimo yodda tutishni eslatadi. Bu shaxsning o'zligini va jamiyatdagi o'rnini anglashidir.

Ijtimoiy tarmoqlarda ertaklarning targ'ibotiga nazar qaratadigan bo'lsak, hozirgi kunda YouTube, Instagram, TikTok kabi platformalarda xalq ertaklari asosida yaratilgan videoroliklar, animatsiyalar va audiokitoblar keng auditoriyani qamrab olmoqda. Ertaklarni qisqa video, podkast yoki grafika orqali yetkazish ularning zamonaviy yoshlar ongiga tez va samarali singdirilishiga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlar ertaklarning nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro miqyosda ham targ'ib qilinishiga sharoit yaratmoqda. Xalq ertaklari va shaxs shakllanishi. Ertaklar shaxsning ma'naviy-axloqiy immunitetini shakllantiradi. Internetdagi turli mafkuraviy oqimlar va zararli kontentga qarshi milliy folklor qadriyatlari tarbiyaviy qalqon bo'lib xizmat qiladi. Bolalar va o'smirlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda ertak motivlaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Zamonaviy pedagogika va psixologiyada ertaklarning qo'llanilishi. Ertak terapiyasi usullari psixologik rivojlanishda samarali vosita bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng qo'llanilmoqda. Ta'lim jarayonida ertaklar asosida yaratilgan multimediyaviy mahsulotlar yoshlarning til, madaniyat va axloqiy qadriyatlarga qiziqishini kuchaytiradi. Xalq ertaklarining ijtimoiy tarmoqlar bilan uyg'unlashuvi nafaqat madaniy merosni asrab-avaylash, balki uni global raqamli maydonda targ'ib qilish imkoniyatini yaratmoqda. Bu esa yoshlarning nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham hurmat bilan qarashini ta'minlaydi. Shunday qilib, xalq ertaklari ijtimoiy tarmoqlar sharoitida zamonaviy shaxsning ma'naviy barkamolligi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda samarali vosita sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

XULOSA

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy shaxsni shakllantirishda kuchli omil bo'lib, ular orqali yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari shakllanmoqda. Shu jarayonda xalq ertaklari ham dolzarbligini yo'qotmay, balki yangi ko'rinishlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalmoqda. Ertaklar zamonaviy texnologiyalar yordamida yosh



avlodga tezkor va jozibali shaklda yetkazilib, milliy identitetni mustahkamlash, ma'naviy tarbiya berish hamda axloqiy qadriyatlarni singdirishda muhim vazifa bajaradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Afanasyev A.N. Русские народные сказки. – М. – С. 1855–1863.
2. Hasanov B. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2015. – 280 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
4. O'zbek xalq og'zaki ijodi to'plamlari. – Toshkent: O'qituvchi, turli yillar.
5. Propp V. Морфология сказки. – Москва: Leningrad universiteti nashriyoti, 1928. – 152 s.